

**NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**2020- yil  
yanvar-dekabr  
oylarida  
Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

**Navoiy - 2020**



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**104,5 %**

**O'sish sur'ati**

**5 769,7  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar hajmi**

**59,5 %**

**Kichik  
tadbirkorlikning  
ulushi**

**Xizmatlar  
sohasi**

**64,6 %**

**Korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi**

**5 738,1  
ming so'm**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
xizmatlar**

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

**Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi**



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 769,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 713,5 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

*(2020-yil yanvar-dekabr oylarida)*

713,5  
mlrd. so'mga

Hajmning  
o'sishi

5 769,7  
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

104,5 %

O'sish sur'ati




Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi



**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm



2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 118,7 mlrd. so'mga o'sdi va 527,2 mlrd. so'mga yetdi.


**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 166,6 mlrd. so'mga o'sgan va 494,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi



Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm



O'tgan yilning mos davri diskret oyi hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yilning XII diskret (dekabr) oyining hajmi 32,7 mlrd. so'mga oshdi.

2020- yil XI diskret (noyabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020-yil XII diskret (dekabr) oyining hajmi 153,6 mlrd. so'mga kamaydi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning XI diskret oyi hajmiga nisbatan, 2019- yilning XII diskret oyi hajmi 50,9 mlrd. so'mga oshdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi






## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--|-------------------|--|
| <b>Xizmatlar - jami</b>  | <b>5 769,7</b>    | <b>104,5</b>                               |
| shu jumladan:  |                   |  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 246,3             | 110,2                                      |
| Moliyaviy xizmatlar  | 1 241,2           | 124,2                                      |
| Transport xizmatlari   | 1 066,5           | 103,3                                      |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari   | 918,8             | 104,1                                      |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 198,8             | 88,5                                       |
| Savdo xizmatlari   | 1 856,8           | 98,9                                       |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 101,9             | 90,2                                       |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 207,6             | 109,3                                      |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 72,0              | 103,7                                      |
| Ijara xizmatlari   | 97,0              | 101,3                                      |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar  | 86,9              | 99,8                                       |
| Shaxsiy xizmatlar  | 132,3             | 96,6                                       |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar   | 253,2             | 114,6                                      |
| Boshqa xizmatlar   | 209,2             | 80,7                                       |

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 32,2 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (24,2 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (14,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,2 %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (9,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (3,7 %), transport xizmatlari (3,3 %) va ijara xizmatlarida (1,3 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi






Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

## Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi, % da

(2020-yil yanvar-dekabr oylarida)



Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – 18,5 %.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 65,5 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning mos davrida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 65,6 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,2 % ni tashkil etdi, bu esa 1 856,8 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning mos davrida ularning hajmi 1 695,0 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 33,5 % iga to'g'ri keldi.

### Savdo xizmatlari



Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismining ko'prog'iga, aniqrog'i 81,9 % ini tashkil etadi.

### Savdo xizmatlari tarkibi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

7,7 %

81,9 %

10,4 %



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**



**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo ulushi 78,4 % ga yetdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 241,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi 947,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 18,7 % ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 294,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 24,2 % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati 163,0 % ga yetgan.



Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi






## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,9 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,8 % oralig'ida qayd etildi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmining 90,6 % ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi






Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 246,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 110,2 % ga yetdi.



**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning mos davrida ushbu xizmat turi hajmi 220,9 mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 4,4 % ga teng bo'ldi.

O'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi




## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,1 % ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2019-y.  
yanvar-dekabr



2020-y.  
yanvar-dekabr



**Telekommunikatsiya xizmatlari**

**Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

**Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**Nashirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-dekabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi 96,6 % ga yetdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

163,6  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

207,6  
mlrd. so'm

2019- y.  
yanvar-  
dekabr



2020- y.  
yanvar-  
dekabr

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 207,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 % ni tashkil etdi.

104,3 %

O'sish sur'atlari, o'tgan  
yilga nisbatan, % da

109,3 %

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar hajmi 163,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'sish, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, 4,3 % da qayd etildi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

2019- y.

198,8

2019- y.

Yanvar-  
dekabr

2020- y.



O'sish  
sur'ati, % da

106,8

88,5

2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 4,8 mlrd. so'mga kamaydi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar





## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 85,3 % bilan ustunlik qiladi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 83,9 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar





**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Yanvar-dekabr

2019- y.

64,9 mlrd.  
so'm

Xizmatlar  
hajmi

2020- y.

72,0  
mlrd. so'm

125,8 %

O'tgan yilga  
nisbatan  
o'sish  
sur'ati

103,7 %

1,3 %

Xizmatlar-  
ning jami  
hajmidagi  
ulushi

1,2 %


Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning hamda viloyatning har bir iqtisodiy tumanlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmida Navoiy shahri- ning ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 37,1 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa shahar va tuman- lardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

#### Taqqoslash uchun:

2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi 37,2 % ni tashkil etgan.

Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Tomdi tumanida– 1,5 % (2019- yil yanvar-dekabr oylarida – 1,5 %) qayd etildi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari<br>(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida) | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|---|----------------------|--|
| <b>Navoiy viloyati</b>  | <b>5 769,7</b>       | <b>104,5</b>                               |
| Navoiy sh.  | 2 143,2              | 104,5                                      |
| Zarafshon sh.   | 713,4                | 105,2                                      |
| <i>tumanlar:</i>  |                      |  |
| Konimex   | 145,6                | 104,1                                      |
| Qiziltepa   | 519,5                | 105,0                                      |
| Navbahor  | 363,3                | 103,8                                      |
| Karmana   | 827,0                | 104,4                                      |
| Nurota  | 275,4                | 103,7                                      |
| Tomdi   | 83,8                 | 103,1                                      |
| Uchquduq  | 205,0                | 104,9                                      |
| Xatirchi  | 493,5                | 104,6                                      |

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

5 738,1  
ming so'm

Hajmning  
o'sishi

622,1  
ming  
so'mga

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 738,1 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5 116,0 ming so'mni tashkil etdi



102,7 %

O'sish  
sur'ati

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar






## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Navoiy shahrida 14 719,9 ming so'mdan, Xatirchi tumanida 2 462,0 ming so'mgacha oraliqida kuzatiladi.

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmining asosiy ko'rsatkichlari, ming so'm (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Xatirchi tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi





**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

## 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

**13 007  
birlik**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

**118,4 %**

**2 025  
birlikga**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

**64,6 %**


Ularning umumiy sonidagi ulushi



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 64,6 %, sanoat -16,3 %, qurilish - 7,7 % ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 11,4 % ga to'g'ri keladi.

### 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi- 64,4 % ni, sanoat- 16,6 % ni, qurilish- 8,4 % ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi- 10,6 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (50,9 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,5 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

**Savdo – 50,9**

**Boshqa turdagi xizmatlar – 30,7**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 9,8**

**Tashish va saqlash – 4,8**

**Axborot va aloqa – 1,5**


**Sog'liqni saqlash – 2,3**

## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 59,5 % ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 83,7 % ga to'g'ri keladi.

Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar



## 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.**  
**Tel.: 79-223-63-31**

**Navoiy viloyatida  
xizmatlar sohasining rivojlanishi**

Dastlabki ma'lumotlar